

**O‘ZBEKISTON YOSHLARINING FAOL IJTIMOYIY POZITSIYASINI  
SHAKLLANTIRISHDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA‘NAVIY  
QARASHLARINING O‘RNI.**

**Boliboyeva Vasila Sodiq qizi**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*Islom “iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

*+(998)99. 235. 24. 26.*

*[vasila123995@gmail.com](mailto:vasila123995@gmail.com)*

**Ilmiy rahbar: Qo‘ysinova Fazilat Oripovna**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsenti Siyosiy fanlar doktori, (PhD).*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, ma’rifatparvar publisist, dramaturg Mahmudxo’ja Behbudiy asarlarida ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalasi, uning yosh avlod uchun ibrat bo’la oladigan jihatlari, jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlari, shuningdek allomaning milliy uyg’onish va ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan fikrlarining bugungi yoshlar hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *ma’rifatparvarlik, milliy uyg’onish, jadidchilik, ma’naviy qarashlari.*

**Abstract:** *This article analyzes the issue of spiritual and moral education in the works of Mahmudkhoja Behbudi, a prominent representative of the Turkestan Jadid movement, an enlightened publicist and playwright. It also examines the aspects of his ideas that can serve as an example for the younger generation, his views on the development of society, as well as the importance of the scholar’s thoughts aimed at national awakening and increasing social activity in the lives of today’s youth.*

**Keywords:** *enlightenment, national awakening, Jadidism, spiritual views.*

**Аннотация:** *В-данной статье анализируется вопрос духовно-нравственного воспитания в произведениях Махмудходжи Бехбуди — яркого представителя туркестанского джадидского движения, просветителя, публициста и драматурга. Рассматриваются его идеи, которые могут служить примером для молодого поколения, его взгляды на развитие общества, а также значение*

*мыслей ученого, направленных на национальное пробуждение и повышение социальной активности, в жизни современной молодежи.*

**Ключевые слова:** *просветительство, национальное пробуждение, джадидизм, духовные взгляды.*

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, milliy ong va ma'daniyatning uyg'onish jarayonlari o'zbek xalqining yangi tarixiy bosqichiga kirishda muhim ro'l o'ynadi. Mazkur davrda shakllangan jadidchilik harakati jamiyatni ma'rifat, ilm-fan va zamonaviy tafakkur asosida yangilashni maqsad qilgan milliy islohatlar harakati sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Ana shu harakatning yirik namoyondalaridan biri, Mahmudxo'ja Behbudiy—o'zbek jadidchilik harakatining eng yetuk vakillaridan biri, ma'rifatparvar, publitsist, dramaturg va ijtimoiy islohotchi sifatida tanilgan shaxsdir. U 1875-yilda Samarqandda tug'ilgan va hayoti davomida millatning uyg'onishi, taraqqiyoti hamda ta'lim islohotlari yo'lida katta hissa qo'shgan. Behbudiy o'z zamonasining ilg'or ziyolilaridan biri sifatida xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma'rifat bilan yuksaltirish tarafdori bo'lgan. U nafaqat ta'lim sohasida islohotlar o'tkazgan, balki ijtimoiy va madaniy masalalar bo'yicha ham chuqur fikrlari bilan tanilgan. Bugungi kunda Behbudiy ilgari surgan g'oyalar yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida ta'limni modernizatsiya qilish va matbuot orqali xalqni savodli qilishga katta e'tibor qaratdi. Uning fikricha, ta'lim taraqqiyotning kaliti bo'lib, agar xalq ilm olmasa, mustaqil va taraqqiy etgan jamiyatni qurish imkonsiz bo'ladi. Shu bois u yangi usul maktablarini tashkil etdi, milliy matbuotga asos soldi va o'z asarlari orqali xalqni ongli hayot kechirishga chorladi. Uning bu boradagi faoliyati jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Behbudiyning maqsadi nafaqat ta'limni isloh qilish, balki millatni yuksaltirish, xalqni savodli, dunyoqarashi keng va zamonaviy tafakkurga ega qilish edi. U o'z davrida shaxsiy manfaatlarni emas, balki butun millat istiqbolini o'ylagan holda harakat qilgan. Shu sababli uning faoliyati nafaqat XX asr boshlarida, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim islohoti yo'lida katta hissa qo'shgan. U yangi usul maktablarini tashkil etish orqali xalqning savodxonligini oshirishni maqsad qilgan. An'anaviy maktablarning zamonaviy ilmdan uzoqlashgani, eski ta'lim metodlarining samarali emasligi uni ta'lim sohasida tub burilish qilishga undagan. 1903-yilda Behbudiy

Samarqandda birinchi yangi usul maktabini ochdi. Bu maktabda o'quvchilar eski maktablardan farqli ravishda tez va samarali o'qish hamda yangi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Yangi usul maktablarining asosiy xususiyatlari: O'quvchilarga arab alifbosi asosida tez yozish va o'qish o'rgatilgan. U ochgan maktablar xalq orasida tez tarqalib boshqa jadidlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Behbudiy ta'lim sohasida nafaqat amaliy faoliyat bilan, balki ilmiy-ijodiy yo'nalishda ham katta hissa qo'shgan. U turli gazetalarda ta'lim va milliy uyg'onish mavzusida maqolalar yozgan, o'quvchilar uchun qo'llanmalar yaratgan. Uning eng muhim asarlaridan biri "Padarkush" dramasi bo'lib, unda eski va yangi dunyo o'rtasidagi ziddiyat, jaholat va ilm o'rtasidagi kurash aks ettirilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy va jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ijtimoiy, siyosiy, va madaniy hayotida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qisqa vaqt ichida jadid maktablarda tahsil olgan yoshlar turli sohalarida faoliyat yuritib, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shdilar. Milliy matbuot shakllandi. Behbudiy "Oyna" gazetasi orqali jamiyatda milliy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirdi va ma'rifiy harakatni targ'ib qildi. Uning izidan boshqa jadid gazetalar ham paydo bo'ldi. Bundan tashqari, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni jaholat va savodsizlikdan xalos qilish tarixiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga undagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Moziy istiqbolning torozusidir, har kim o'lchasinu-bilsin" deb bejizga aytmagan<sup>1</sup>. Maqolda, o'tmishga faqat faxrlanish uchun emas balki xatolardan xulosa chiqarish uchun nazar tashlashimiz lozimligi aytib o'tilgan. Va eng asosiysi, bugungi kunga mos jihatlardan ibrat olishga, eskirgan davr talabiga javob bermaydigan qarashlardan esa voz kechishga o'rganishimiz kerak deyilgan. Biz istiqbolning ilk kunlaridanoq eski, qotib qolgan mafkuraviy aqidalardan voz kechishga, ma'naviy yangilanishga, odamlarning qalbi va ongiga milliy g'oya tamoyillarini singdirishga aniq siyosat olib bordik. Bu esa o'z navbatida yurtdoshlarimizning tafakkurini o'zgartirishga, islohotlarni joriy etishda yangicha yondashuvlarni shakllantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Darhaqiqat, bugungi yoshlar bundan 40-50 yilgi yoshlardan tubdan farq qiladi. Ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni, qarashlari va o'zlari oldiga qo'ygan talablarida juda katta sezilarli o'zgarishlar bor.

Yurtimiz jadidlari xususan, Avloniy ilmning va bilimli bo'lishning ahamiyati va ilmi kishining boshqalardan ajralib turishini, Behbudiy esa, jamiyat tarqqiyoti, tamaddun kelajagi bilimli, salohiyatli yoshlarning qo'lida ekanligining ahamiyatini yoritganlar<sup>2</sup>. Shu sababdan ham, O'zbekistonda inson tafakkuri, intellektual-ma'naviy

<sup>1</sup> <https://oliymahad.uz/43832>

<sup>2</sup> Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999.– 179-б.

salohiyatini yuzaga chiqarish, shakllantirish hamda realizatsiya qilish zamirida yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish masalalarini o'rganish asnosida keng ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ijtimoiy-ma'naviy qarashlari yoshlarni ongli faollikka, vatanparvarlik, halollik va mas'uliyat ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida ham ma'naviy merosning uzluksiz davomiyligini ta'minlaydi. Yoshlarning tanlovi, pozitsiyasi jamiyat taraqqiyoti uchun obektiv zarurat hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy salohiyati vatanparvarlik, sadoqat, burch, vijdon, qonunga itoat, mas'uliyatni anglash, jamiyatda yuz beradigan salbiy ijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizlik kabi xususiyatlar Yangi O'zbekistonni barpo etishda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi.

Behbudiy maqolalari orqali ham yoshlarni uyg'otish, ularni jamiyatga nisbatan mas'uliyatini oshirishga harakat qiladi. 1915-yilda yozilgan quydagi maqolada Behbudiy zamonaviy bilimlardan uzoq, g'aflatda qolayotgan yoshlardan xavotirda<sup>3</sup>. *“Ey yoshlar! Tashqarida olam o'zgarib borur, sen esa uyquda yurursen. Sen uyg'onmasang, kim uyg'otar xalqni?”* Bu maqolada "ogohlik" va "mas'uliyat" g'oyalari markazda turadi. Behbudiy uchun har bir yosh — millatning ertangi poydevori, shuning uchun ularni beparvolikdan ogohlantirish zarur deb biladi. Behbudiy yozgan maqolalar bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib har bir yosh uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish masalasi shaxs va jamiyat munosabatlarining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda esa Maxmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, yoshlarni ilm-fan ma'rifat, milliy ong va vatanparvarlikka oid g'oyalari, ularni o'z kelajagi va mamlakat taraqqiyoti uchun mas'uliyat bilan yashashga undaydi. Shuning uchun ham Behbudiy ma'naviy merosi hozirgi kunda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 179-б.
2. Behbudiy, M. (1915). Muhtaram yoshlarga murojaat.
3. [https://buxdu.uz/media/aftoreferat/28.10.2025\\_Avtoreferat\\_sodiqov\\_45\\_%D1%82%D0%B0\\_compressed.pdf](https://buxdu.uz/media/aftoreferat/28.10.2025_Avtoreferat_sodiqov_45_%D1%82%D0%B0_compressed.pdf).
4. <https://oliymahad.uz/43832>

<sup>3</sup> Behbudiy, M. (1915). Muhtaram yoshlarga murojaat.